

**“O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining
Odob-axloq komissiyasi yig‘ilishining
16 -sonli**

BAYONNOMASI

2026-yil “19” fevral

Toshkent shahri.

Komissiya raisi

A.Jumanazarov

Kotib

D.Umarova

Qatnashdilar:

Z.Gafurov, Q.Raximov

Taklif etilganlar:

70 nafar xodim

KUN TARTIBI:

O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi xodimlari tomonidan ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyani tartibga solish bo‘yicha choralar ko‘rish va takliflar kiritish masalasini muhokama qilish.

O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi xodimlari tomonidan taqdim qilingan ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyalar o‘rganib chiqilib, ularni tartibga solish va tegishli choralar ko‘rish maqsadida, agentlikning Odob-axloq komissiyasiga taqdim qilingan bo‘lib, unga ko‘ra:

– Agentlik direktori o‘rinbosari **Tohirov Odiljon Zohidjonovichining ukasi – Tohirov Zufarbek Zoxidjonovich** “O‘zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi” davlat muassasasining Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizlik shu‘basi boshlig‘i lavozimida;

– Agentlik texnik jihatdan tartibga solish agentligining davlat nazoratini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i **Muxitdinov Ulug‘bek Nasrullaevichning ukasi – Muxitdinov Oybek Nasrullaevich** “O‘zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi” davlat muassasasining bosh mutaxassisi lavozimida;

– Agentlik texnik jihatdan tartibga solish agentligining yig‘ma axborot-tahlil bo‘limi bosh mutaxassisi **Azimxo‘jaev Saidjamol Saidakbar o‘g‘lining ukasi – Azimxo‘jaev Saidaziz Saidakbar o‘g‘li** “O‘zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi” davlat muassasasining mutaxassis lavozimida;

– Agentlik texnik jihatdan tartibga solish agentligining texnik reglamentlar va standartlar bo‘yicha dasturlarni amalga oshirish boshqarmasi bosh mutaxassisi **Tursunova Go‘zal Shuxratovnaning akasi – Tursunov Tohir Shuxratovich** “O‘zbekiston akreditatsiya markazi” davlat muassasasining bosh iqtisodchisi lavozimida;

– Agentlik texnik jihatdan tartibga solish agentligining davlat nazoratini muvofiqlashtirish bo‘limi bosh mutaxassisi **Xabibullaev Jamshid Muxibullaevichning o‘g‘li – Muxibullaev Akbarxon Jamshid o‘g‘li** “O‘zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi” davlat muassasasining mutaxassis lavozimida;

– Agentlik texnik jihatdan tartibga solish agentligining buxgalteriya bo‘limi boshlig‘i **Otamirzaeva Difuza Abduvalievnaning o‘g‘li – Otamirzaev Kamronbek Tohir o‘g‘li** “O‘zbekiston milliy meteorologiya instituti” davlat muassasasining mutaxassis lavozimida faoliyat yuritib kelmoqda.

Komissiya yig‘ilishda muhokama qilingan masala yuzasidan **QAROR** qiladi:

1. “O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi xodimlari tomonidan ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyani tartibga solish bo‘yicha choralar ko‘rish va takliflar kiritish masalasi **muhokama qilindi deb hisoblansin.**

2. **O.Tohirov, U.Muxitdinov, S.Azimxo‘jaev, G.Tursunova, J.Xabibullaev va D.Otamirzaevalarning** holati bo‘yicha manfaatlar to‘qnashuvining turi haqiqiy deb hisoblanib, **ogohlantirilsin.**

3. Agentlik xodimlari tomonidan taqdim qilingan ehtimoliy manfaatlar o‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyalar bo‘yicha O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining Odob-axloq komissiyasi tomonidan qabul qilingan qarorlar ijrosi ustidan nazorat Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘limi (**D.Umarova**) hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorati bo‘limi (**Q.Raximov**) tomonidan amalga oshirilsin hamda besh ish kuni muddatida manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini hisobga olish **reestriga kiritilishi ta‘minlansin.**

4. Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘limi (**D.Umarova**) hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorati bo‘limi (**Q.Raximov**) Agentligi xodimlari tomonidan lavozim majburiyatlarini bajarish jarayonida ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi vujudga kelganda yoki vujudga kelishi mumkin bo‘lgan holatlar aniqlanganda, o‘z vaqtida axborot berishlari tushuntirilsin va aniqlangan holatlar yuzasidan **tegishli chora-tadbirlar amalga oshirilsin.**

Komissiya raisi

Komissiya kotibi

A.Jumanazarov

D.Umarova